# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2024-yil 21-iyun, № 123 (8746) Juma

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# MUHANDISLIK SOHALARIDA KADRLAR TAYYORLASH MASALALARINI HAL QILISH HAR QACHONGIDAN HAM MUHIM

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-iyun kuni poytaxtimizning Olmazor tumanidagi "Inno" innovatsion o‘quv-ishlab chiqarish texnoparki faoliyati bilan tanishdi, muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishini o‘tkazdi.**

"Inno" innovatsion texnoparki uch yil oldin bunyod etilgan. Bu yerda sanoat sohalarini rivojlantirish uchun innovatsion g‘oya va ixtirolar ishlab chiqiladi. Yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘rgatish maqsadida oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Har yili 15 ming nafarga yaqin talaba va o‘quvchilar ishtirokida seminar, amaliy mashg‘ulotlar tashkil etiladi.

Yurtimizda bunday innovatsion markazlar ko‘payib bormoqda. Sanoat, energetika va axborot texnologiyalari rivojlanib, yangi-yangi majmualar ishga tushirilmoqda. Ular uchun zamonaviy bilim va malakaga ega muhandis va texniklar kerak.

Shu yerda Toshkent davlat texnika universiteti, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Toshkent davlat transport universiteti, Farg‘ona politexnika instituti, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti va Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzurida tashkil etilayotgan oliy muhandislik maktablari taqdimoti o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi qarorida bu borada qator vazifalar belgilangan. Xususan, qarorga muvofiq muhandislik-texnika yo‘nalishida kadrlar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalari tashkiliy-boshqaruv faoliyati takomillashtirilmoqda. Amaldagi o‘quv dasturlarining zamonaviy texnologiyalar va ish beruvchilar talabiga muvofiqligi o‘rganilib, tubdan o‘zgartirilmoqda.

Davlatimiz rahbariga shular haqida ma’lumot berildi.

Dastlabki bosqichda 10 ta oliy ta’lim muassasasi huzurida oliy muhandislik maktablari ochiladi. Maktabning kuzatuv kengashiga olimlar bilan birga hamkor korxonalar vakillari a’zo bo‘ladi.

Ushbu maktablarda ikki yillik amaliy magistratura dasturlari yo‘lga qo‘yilib, ishlab chiqaruvchilar buyurtmasi asosida nomzodlar saralab olinadi. Birinchi yil talabalar korxonalar buyurtmasi asosida yangi mahsulotlarni loyihalashtiradi, ilmiy izlanishlar o‘tkazadi, bu borada chuqurlashgan modul dasturlar asosida o‘qitiladi. Ikkinchi yil yangi mahsulotlar bo‘yicha tajriba-konstruktorlik namunalarini yaratish bilan bog‘liq texnologik jarayonlarni korxonalarda sinovdan o‘tkazadi.

Prezident oliy ta’lim muassasalaridagi ilmiy izlanishlarning hayotiyligi va samaradorligiga ahamiyat berdi. Ta’lim tizimiga qaratilayotgan e’tibor ilm-fan yutuqlarida o‘z ifodasini topishi kerakligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari olimlarning ixtirolari, ilg‘or ishlanmalari bilan ham tanishdi. Jumladan, energiya tejamkor uskunalar, yuklama ortishi sabab transformatorlar portlashidan himoyalovchi sovitish tizimi, neft-gaz sohasida muhim bo‘lgan kimyoviy reagentlar, bunyodkorlik, yo‘lsozlikdagi zamonaviy yondashuvlar, suv inshootlari uchun muhandislik loyihalari, axborot texnologiyalariga oid zamonaviy ixtirolar haqida ma’lumot berildi.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Dunyoda raqobat kuchaygan bugungi zamonda mamlakatimiz ichki resurslarga tayanib, industrial rivojlanish yo‘lidan bormoqda. Yiliga 3 mingta sanoat korxonasi ishga tushirilib, 150 ming atrofida ish o‘rni yaratilyapti.

Joriy yilda davlat investitsiya dasturlari asosida 21 trillion so‘mlik loyihalar amalga oshiriladi. Shuningdek, bu yil 37,5 milliard dollarlik xorijiy va hududiy investitsiya loyihalari nazarda tutilgan.

Shunga mutanosib ravishda davlat tomonidan ilm, ta’lim va innovatsiyaga e’tibor qaratilmoqda. Masalan, o‘tgan to‘rt yilda 1 ming 727 ta amaliy, innovatsion, fundamental va startap loyihalarga 2,2 trillion so‘m yo‘naltirilgan. Tadqiqot, tajriba-konstruktorlik uchun xarajatlar 2 barobar o‘sgan.

Lekin bu boradagi natijalar, yuqori malakali muhandislar hali yetarli emas. Oliy o‘quv yurtlari bilan sanoat o‘rtasida uzilish bor.

Shu bois yig‘ilishga texnika yo‘nalishidagi muassasalar rektorlari ham taklif qilindi.

Davlatimiz rahbari, avvalo, sohadagi muammolarga to‘xtalib o‘tdi.

Yurtimizda texnika yo‘nalishidagi 36 ta davlat oliygohida yiliga 67 ming bitiruvchi chiqadi. Ammo ulardagi dastur va mutaxassisliklar ishlab chiqaruvchilar talabiga mos emas. Oqibatda muhandislarning 60 foizi o‘zi o‘qigan yo‘nalishda ishlamayapti.

Oliy ta’lim muassasalari fundamental tadqiqotlar o‘tkazish bilan cheklangan, iqtisodiyot uchun amaliy ishlanmalar juda kam. Muhandislik yo‘nalishida yuzlab startap va innovatsion loyihalar "qog‘oz"da qolib ketyapti.

Xorijiy universitetlarda "tannarx muhandisligi" "qiyoslash muhandisligi", "qayta muhandislik" kabi ixtisosliklar bor. Bizdagi texnika oliygohlarida bu yo‘lga qo‘yilmagan. Oqibatda mahalliy sanoat tarmoqlari katta mablag‘ sarflab, ishchilarini xorijda o‘qitishga yoki chetdan mutaxassis olib kelishga majbur.

Oxirgi yetti yilda oliy ta’lim qamrovi 5 barobar oshgan bo‘lsa-da, yoshlarning muhandislik-texnikaga qiziqishi juda past. Universitet va ilmiy laboratoriyalarning ayrim uskunalari eskirgan. Ko‘p professor-o‘qituvchilar amaliyotdan uzilib qolgan. Rektorlar korxonalarga borib, yangi texnologiyalar bilan tanishmaydi, uskuna va dastgohlarni o‘rganmaydi.

So‘nggi to‘rt yilda oliy ta’lim muassasalarining ilmiy tadqiqot uchun tuzgan shartnomalari 3 karra ko‘paygan. Ulardan daromad 6 karra oshgan. Lekin ilmiy ishlanmalar natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish juda past. Ixtirolarni patentlashda ham hamma birdek emas.

Prezidentimiz sohani rivojlantirish uchun yangi tashabbuslarni ma’lum qildi.

Endi texnika yo‘nalishida o‘qitish va ilmiy tadqiqot jarayonlari ilg‘or tajriba asosida to‘liq o‘zgaradi. 36 ta oliy o‘quv yurti va ularning filiallari bosqichma-bosqich yiriklashib, jami 20 ta oliygoh qoladi. Ular dual ta’lim tizimiga to‘liq o‘tadi.

Mehnat bozorida talab yo‘q mutaxassisliklar qisqaradi. Ayrim kafedralar birlashtiriladi. Dekanatlarning talabalarga xizmat ko‘rsatish funksiyalari to‘liq raqamlashadi. Xorijdagi kabi "Registrator ofisi" tashkil qilinadi.

Har bir oliygoh Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Rossiya, Italiya, Turkiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi rivojlangan davlatlar nufuzli texnika universitetlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi.

"Tarmoq – korxona – oliygoh" zanjiri asosida, har bir oliygohga sanoat hamkori belgilab beriladi.

Barcha muhandislik oliygohlari hamkor korxonalarida kafedralar ochadi va dual ta’limni yo‘lga qo‘yadi. Bunda korxonalar kafedralarni jihozlash, o‘qituvchi va talabalarni rag‘batlantirishga mablag‘ ajratadi. Talabalarning amaliyoti va bitiruv kursdagi ta’limi to‘liq hamkor korxonalarda tashkil qilinadi.

Vazirlik va korxonalar tizimida 32 ta tarmoq kengashlari tashkil qilinadi. Ular institutlar bilan texnika sohalaridagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi va buyurtmachi bo‘ladi.

Shuningdek, birinchi bosqichda 10 ta oliygohda "Oliy muhandislik maktablari" ochiladi. Ularda ikki yillik amaliy magistratura dasturlari yo‘lga qo‘yilib, ishlab chiqaruvchilar buyurtmasi asosida nomzodlar saralab olinadi. Korxonalar "Oliy muhandislik maktabi"da laboratoriya ochish va jihozlashni moliyaviy qo‘llab-quvvatlaydi. Davlat ham budjetdan mablag‘ ajratadi.

Endi oliy ta’lim muassasalarining tajriba ishlab chiqarish korxonalari maqomi qonun bilan mustahkamlanadi. Ularga IT-park rezidentlariga qo‘llanilayotgan imtiyozlar beriladi. Shu’ba korxonasi ishchisining kamida 60 foizi doktorant va talabalardan iborat bo‘ladi.

Kelasi yildan texnika yo‘nalishidagi loyihalarga davlat grantlari 4 karra oshiriladi. Korxonaga oliygoh bilan hamkor tashkilot ham ta’sischi bo‘lishiga ruxsat beriladi.

Viloyat hokimlari va tarmoq rahbari ilmiy va ishlab chiqarish loyihalari uchun oliygohlarga 10 milliard so‘mgacha buyurtmani to‘g‘ridan-to‘g‘ri berishi mumkin bo‘ladi.

Investitsiya loyihalari qiymatining kamida yarim foizini ilmiy ishlarga ajratish tizimi joriy qilinadi.

Muhandislik yo‘nalishlari bo‘yicha "Eng yaxshi g‘oya", "Eng yaxshi loyiha" va "Eng yaxshi ixtiro" respublika tanlovi o‘tkaziladi. Unda o‘qituvchilar, talabalar va amaliyotchi muhandislar ishtirok etishi mumkin bo‘ladi. Birinchi o‘ringa elektromobil beriladi.

Shuningdek, g‘oya, loyiha va ixtiro muallifi bo‘lgan eng zo‘r 10 nafar ishtirokchi Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Rossiya, Italiya, Turkiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi davlatlarga stajirovkaga yuboriladi.

Yig‘ilish ochiq muloqot tarzida davom etdi. Tarmoq rahbarlari, olimlar, rektorlar va muhandislar sohada ilm-fan va ta’limni rivojlantirish bo‘yicha fikrlarini aytdi.

Ularning takliflari asosida alohida farmon loyihasini ishlab chiqish topshirildi.

– Iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirish uchun bizga yuqori malakali muhandis-texnologlar suv bilan havodek zarur. Har bir vazir, tarmoq rahbari, rektor va professor-o‘qituvchi mas’uliyatni chuqur his qilib, qattiq ishlasa, izlansa, bunga albatta erishamiz, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

**Ziyodulla JONIBEKOV,**
**Ikrom AVVALBOYEV,**
**O‘zA muxbirlari.**

JST bosh direktori Ngozi OKONJO-IVEALA:

# MUZOKARALAR JARAYONINI JADALLASHTIRISHDA O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A’ZO BO‘LISHDAGI SHAXSIY SADOQATI MUHIM ROL O‘YNADI




*Jahon savdo tashkiloti (JST) saytida mazkur tuzilma bosh direktori Ngozi Okonjo-Ivealaning O‘zbekistonga amalga oshirgan tashrifi yakunlariga bag‘ishlangan tahliliy maqola e’lon qilindi.*

*Unda Jahon savdo tashkiloti bosh direktori tashrif davomida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingani,shuningdek,uning Toshkentda iqtisodiy islohotlar va JSTga a’zo bo‘lish mavzuida o‘tkazilgan xalqaro anjumanda ishtirok etgani ma’lum qilingan.*

## Dunyo nigohi

Maqolada aytilishicha, 5-6-iyun kunlari Markaziy Osiyoga tashrifi doirasida JST bosh direktori O‘zbekistonda bo‘lib, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida o‘tkazilgan "O‘zbekistondagi iqtisodiy islohotlar va JSTga a’zo bo‘lish jarayoni" mavzuidagi yuqori darajadagi konferensiyada ma’ruza bilan qatnashgan.

Konferensiya O‘zbekiston va JST tomonidan Xalqaro valyuta fondi hamda Jahon banki bilan birgalikda tashkil etildi. Unda hukumat vakillari va rivojlanish bo‘yicha hamkorlar qatnashdi.

"Bosh direktor Ngozi Okonjo-Iveala o‘z nutqida O‘zbekiston hukumatining a’zolikka kirish jarayonini ilgari surish bo‘yicha sa’y-harakatlarini yuqori baholadi. "Toshkentga tashrifim chog‘ida mamlakat qonunchiligini JST bitimlariga muvofiqlashtirish to‘g‘risidagi Prezident Farmoni e’lon qilindi. Bu muhim hujjatlardan hisoblanadi", deya bosh direktor so‘zlaridan iqtibos keltirilgan manbada.

Nashrda mazkur tashkilotga muvaffaqiyatli a’zo bo‘lish uchun beshta asosiy komponent zarurligi ta’kidlangan. Kuchli siyosiy iroda, idoralararo muvofiqlashtirishning samarali mexanizmi, malakali bosh muzokarachi boshchiligidagi mehnatsevar texnik muzokarachilar guruhi, hamkorlarning qimmatli yordami hamda amaliy harakatlarning vaqtlarini belgilovchi "Yo‘l xaritasi" shular jumlasidandir.

"Bosh direktorning aytishicha, O‘zbekistonda dastlabki to‘rtta komponent mavjud. U, shuningdek, O‘zbekistonga a’zolikni yakunlash uchun kamida 2026-yilgacha JST qoidalariga rioya qilish bo‘yicha hukumat miqyosida "Yo‘l xaritasi"ni ishlab chiqishni va a’zolarning aniq so‘rovlari bo‘lgan sohalarga e’tibor qaratishni maslahat berdi", deb ma’lum qilingan materialda.

➡ 2

## Senat Kengashida

# NAVBATDAGI YALPI MAJLISNI CHAQIRISH BO‘YICHA QAROR QABUL QILINDI



*Kecha Oliy Majlis Senati Kengashining navbatdagi majlisi bo‘lib o‘tdi. Majlisni Senat Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.*

*Unda Senatning ellik uchinchi yalpi majlisini 2024-yil 21-iyun kuni chaqirish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.*

Ta’kidlanganidek, videokonferensaloqa tizimidan foydalangan holda o‘tkaziladigan yalpi majlisda qator masalalarni muhokama qilish nazarda tutilgan.

"O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida"gi, "Kiberxavfsizlikni ta’minlash sohasidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida"gi, "Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida"gi qonunlar shular jumlasidandir.

Shuningdek, senatorlar "Intellektual mulk obyektlarini huquqiy himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida"gi hamda "Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan kasaba uyushmalari tashkilotlarini hisobga qo‘yish tartibi belgilanayotganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimchalar va o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida"gi qonunlarni ko‘rib chiqadi.

➡ 2

### O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ellik uchinchi yalpi majlisi ochilishi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining ellik uchinchi yalpi majlisi 2024-yil 21-iyun kuni soat 10:00 da Toshkent shahrida Oliy Majlis Senatining majlislar zalida o‘z ishini boshlaydi.

Yalpi majlisi videokonferensaloqa tarzida o‘tkazish rejalashtirilgan.

Yalpi majlis Senatning "YouTube" tarmog‘idagi sahifasi orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoritib boriladi.

## Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

# JIDDIY TAHLILLARGA ASOSLANGAN TAKLIFLAR



*Kecha siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig‘ilishlari bo‘lib o‘tdi. Ularda quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan bir qator qonun loyihalari ko‘rib chiqildi. Muhokamalar jarayonida qonun loyihalarining konseptual jihatlariga e’tibor qaratilib, deputatlar tomonidan ularni yanada takomillashtirish,pishiq-puxta tayyorlashga oid muhim taklif va tavsiyalar ilgari surildi.*

### Ikki mamlakat va xalq manfaati yo‘lida o‘zaro hamkorlik

**Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi** yig‘ilishida dastlab Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yolning shu yil 13 – 15-iyun kunlari mamlakatimizga tashrifining ahamiyati muhokama qilindi.

So‘nggi yillarda ikki davlat o‘rtasidagi parlamentlararo muloqotlar faollashgani o‘zaro hamkorlikning qonunchilik bazasini rivojlantirish va xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stona aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilayotgani qayd etildi.

Koreya Respublikasi Prezidentining yurtimizga tashrifi savdo, investitsiya va texnologiya transferi kabi muhim sohalarda sheriklikni chuqurlashtirishga qaratilgan qator muhim kelishuv va memorandumlarni imzolash imkonini bergani, bu nafaqat iqtisodiy almashinuvni oshirish, balki har ikki davlat biznes va tadbirkorlari uchun yangi imkoniyatlar yaratishga xizmat qilishi ta’kidlab o‘tildi.

O‘zLiDeP fraksiyasi a’zosi Dilorom Fayziyevaning fikricha, mazkur davlat tashrifi nafaqat diplomatik aloqalarni yanada jadallashtiradi, balki kelgusida barqaror va o‘zaro manfaatli hamkorlikka zamin yaratadi. Eng muhimi, bu O‘zbekiston va Janubiy Koreya nafaqat alohida strategik sheriklar, balki ikki mamlakat va xalq manfaati yo‘lida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishga tayyor do‘stlar ekanini tasdiqlaydi.

Yig‘ilishda "Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to‘g‘risida"gi qonun loyihasi obdan muhokama qilindi.

➡ 2

# UZOQ ISTIQBOLGA MO‘LJALLANGAN LOYIHALAR

*Siyosatshunos Qudratilla Rafiqovning "Xalq so‘zi" gazetasida chop etilgan "Shavkat Mirziyoyev: men umrimni shu xalqqa tikkanman!" sarlavhali maqolasini o‘qirkanmiz,undagi fikrlar bizni mulohazaga chorladi.*

*Aslida Vatanga mehr va sadoqat har doim ham yuqori pardalarda ifodalanavermaydi. Biroq shunday lahzalar bo‘ladiki,tuyg‘ularingni qalbdan o‘tkazib to‘kking keladi.*

## Munosabat

"Xudo menga sog‘liq berib, umr bersa, bizda kambag‘allik va ishsizlik bo‘lmaydi. Nimaga desangiz, bunga men yetti yil umrimni tikdim..."

Yurtboshimizning Jizzaxda viloyat faollari bilan uchrashuvdagi nutqida mavzudan biroz chekinib, samimiy va yurakdan aytilgan so‘zlarini tinglab, barchamiz shu yurtning bir farzandi sifatida favqulodda sergak tortdik. Bu o‘z xalqi oldida hamisha hisobdorlik hissi va mas’uliyati bilan mehnat qilayotgan, o‘z siyosati va shaxsiy irodasi bilan el dardiga malham bo‘lib yashayotgan insonning yana bir chaqirig‘i sifatida yangradi.

Tarixan qisqa, lekin mazmunan salmoqdor yetti-sakkiz yilda O‘zbekistonda barcha islohotlar, demokratik o‘zgarishlar maqtanish, turli reytinglarga kirish uchun emas, avvalo, xalqimizning buguni va ertasini o‘ylab amalga oshirilgani bilan ahamiyatlidir. Barchamiz ko‘rib turibmizki, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi takomillashtirilmoqda. Yurtimizda davlat organlari faoliyatida insonlarning og‘irini yengil, uzog‘ini yaqin qilish kabi ezgu niyatlar ustuvorlik kasb etayotir.

➡ 3

## NAVBATDAGI YALPI MAJLISNI CHAQIRISH BO‘YICHA QAROR QABUL QILINDI

Bundan tashqari, yalpi majlisda “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga giyohvandlik vositalarining, ular analoglarining yoki psixotrop moddalarning, shuningdek, kuchli ta’sir qiluvchi va zaharli moddalarning qonunga xilof muomalasiga qarshi kurashishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonunni ham muhokamadan o‘tkazish rejalashtirilmoqda.

“O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi, “Tovar belgilari bo‘yicha qonunlar to‘g‘risidagi Singapur shartnomasini (Singapur, 2006-yil 27-mart) ratifikatsiya qilish haqida”gi qonunlar ham tahlil markazida bo‘ladi.

Senatorlar Qoraqalpog‘iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi bandligini ta’minlash chora-tadbirlari ijrosini, Samarqand viloyati mahallalarida tadbirkorlikni rivojlantirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha ishlar holati haqidagi masalalarni muhokama qiladi.

Yalpi majlisda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori lavozimiga nomzodni ko‘rib chiqish, O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi raisini saylash, O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tarkibiga o‘zgartirishlar kiritish masalalari ham ko‘rib chiqiladi.

**“Xalq so‘zi”.**

JST bosh direktori Ngozi OKONJO-IVEALA:

## MUZOKARALAR JARAYONINI JADALLASHTIRISHDA O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A’ZO BO‘LISHDAGI SHAXSIY SADOQATI MUHIM ROL O‘YNADI

Xabar berilishicha, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan uchrashuvda Jahon savdo tashkiloti bosh direktori JSTga a’zo bo‘lishdagi shaxsiy sadoqati uchun minnatdorlik bildirgan. Bu muzokaralar jarayonini tezlashtirishda muhim rol o‘ynadi. Shuningdek, JST rahbari Bosh vazir o‘rinbosari, JSTga a’zo bo‘lish bo‘yicha idoralararo komissiya raisi Jamshid Xo‘jayev va Prezidentning iqtisodiy rivojlanish masalalari bo‘yicha maslahatchisi Ravshan G‘ulomov bilan ham uchrashuv o‘tkazdi. Uchrashuvlar chog‘ida 24-may kuni bo‘lib o‘tgan Ishchi guruhning so‘nggi yig‘ilishidan keyin O‘zbekistonning a’zo bo‘lish jarayoni yuzasidan fikr almashildi.

Maqolada Toshkentga tashrifi chog‘ida Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “JST kafedrasi” dasturi ishtirokchisi bo‘lgan bosh direktor Ngozi Okonjo-Ivealaga universitetning faxriy doktori unvoni berilgani alohida urg‘ulangan.

“Bosh direktor Ngozi Okonjo-Ivealaga mazkur universitetda bo‘lib o‘tgan anjumandagi ma’ruzasida O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiyot, xalqaro munosabatlar va xalqaro huquq sohasidagi ekspertlar salohiyatini shakllantirishda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidladi”, deyiladi maqolada.

**“Dunyo” AA.**
Jeneva

Qonunchilik tashabbusi

## MAHALLIY KENGASHLAR RAISI DEPUTATLAR ORASIDAN SAYLANADI

***Oliy Majlis Qonunchilik palatasining bir guruh deputatlari tashabbusi bilan mahalliy davlat hokimiyatining konstitutsiyaviy asoslari takomillashtirilgani munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi ishlab chiqildi.***

Mazkur qonun loyihasida quyidagilar ko‘zda tutilmoqda:

– mahalliy Kengashlar faoliyatiga deputatlar orasidan saylanadigan rais boshchilik qilishi;

– xalq deputatlari Kengashi raisi o‘z vazifalarini bajarish davrida doimiy va boshqa komissiyalar, partiya guruhlari tarkibiga kirishi mumkin emasligi;

– Kengashlar yig‘ilishlarida hokim nomzodi ko‘rib chiqilayotganida nomzod mahalliy Kengash deputatlariga hududni rivojlantirish dasturini taqdim etishi shartligi nazarda tutilmoqda.

Qonun loyihasida Konstitutsiyamizda kafolatlangan normalar bilan bir qatorda “Kengash so‘rovi”, “Kengash tekshiruvi” kabi yangi institutlar kiritilmoqda. Shu bilan birga, qonun loyihasida xalq deputatlari Kengashida qanday komissiyalar tuzilishi bo‘yicha normalar aniq belgilanmoqda.

Mazkur qonun loyihasi ustida Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo‘mitasi tomonidan olimlar, mutaxassislar, ekspertlar, jamoatchilik vakillari jalb etilgan holda qizg‘in ish olib borilmoqda.

Ma’lumot uchun: yangi tahrirdagi Konstitutsiyada xalq deputatlari Kengashiga uning deputatlari orasidan qonunga muvofiq saylanadigan rais boshchilik qilishi hamda viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari Kengashining raisi lavozimini egallashi mumkin emasligi mustahkamlangan.

**“Xalq so‘zi”.**

# EGALIK HUQUQI E’TIROF ETILADI

*Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar tarkibida inson huquq va manfaatlarini ta’minlashga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Buni fuqarolarning mol-mulk,xususan, yer maydonlariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish borasidagi sa’y-harakatlar misolida ham ko‘rish mumkin.*

### Muhokama oldidan

Bugun o‘z ishini boshlaydigan Oliy Majlis Senatining ellik uchinchi yalpi majlisi muhokamasiga kiritilayotgan “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi qonun ana shu ezgu maqsadga qaratilganligi bilan ham e’tiborlidir.

Xo‘sh, qanday hayotiy zarurat bu qonunni ishlab chiqishga majbur qildi?

Buning qator sabablari bor. Ularning eng muhimi xususida to‘xtalib o‘tamiz.

Gap shundaki, bundan bir necha yil ilgari Oliy Majlis Senatiga Buxoro viloyatining Olot tumanida yashovchi bir guruh fuqarolar tomonidan ularga tegishli bo‘lgan yer uchastkalarining kadastr hujjatlarini to‘liq rasmiylashtirish masalasi yuzasidan murojaat yo‘llangan edi. Shu murojaat asosida Senat Kengashining qaroriga ko‘ra maxsus ishchi guruh tuzilib, Olot tumanida 1991 – 2000-yillar davomida uy-joylarni xususiylashtirish bo‘yicha olib borilgan ishlar, fuqarolarga berilgan egalik orderlari hamda tegishli yig‘ma jildlar xatlovdan o‘tkazildi, murojaatda qayd etilgan uy-joylarni ajratish, ularga huquqiy maqom berishga oid hujjatlar, shu jumladan, arxiv hujjatlari hamda masalaga oid yer va soliq qonunchiligi o‘rganildi.

Xatlovda birgina Olot tumanidagi 4 ta mahalla fuqarolar yig‘inida xususiylashtirish jarayonida yerga egalik huquqi berilmagan 289 turarjoy aniqlanib, ularning manzilli ro‘yxati shakllantirildi.

O‘rganishlar jarayonida ushbu masalaning dolzarbligi hamda u boshqa hududlarda ham mavjudligi aniqlandi. Shu bois masalaga qonuniy yechim topish uchun dastlab Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi tayyorlandi. Ammo davlatimiz rahbari 2022-yil 18-iyulda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida mazkur masalaning xalqimiz uchun naqadar muhimligini inobatga olib, aynan tegishli qonun ishlab chiqish vazifasini belgilab berdi.

Shu tariqa mas’ul vazirlik va idoralar vakillaridan iborat ishchi guruhi tomonidan qonun loyihasi ishlab chiqilib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritildi.

Qonun 6 bob, 35 moddadan iborat bo‘lib, uning amal qilish muddati 2028-yil 1-yanvariga qadar etib belgilangan.

**Qonun bilan quyidagi yer uchastkalari, bino, inshootlarga nisbatan bo‘lgan huquqlar e’tirof etiladi:**

- fuqarolar tomonidan 2018-yil 1-mayga qadar yakka tartibda uy-joy qurish orqali o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkasi hamda unda qurilgan binolar va inshootlar;
- 2018-yil 1-mayga qadar fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari tomonidan hujjatlarda ko‘rsatilgan yer uchastkasi maydonidan ortiqcha egallagan yer uchastkasi hamda unda qurilgan binolar va inshootlar;
- “bir martalik aksiya” doirasida huquqlarni e’tirof etish oxiriga yetmagan yer uchastkasi hamda unda qurilgan bino va inshootlar;
- 2021-yil 8-iyunga qadar tuman (shahar) hokimining qarori bilan ajratilgan, lekin viloyat hokimi yoki xalq deputatlari Kengashi tomonidan o‘z vaqtida tasdiqlanmagan yer uchastkalari;
- fuqarolarning bog‘dorchilik va uzumchilik shirkatlari hududidagi turarjoylari hamda ular egallagan yer uchastkasi;
- 2020-yil 9-martga qadar kichik sanoat zonalari hududiga joylashtirilgan tadbirkorlik subyektlarining yashash uchun mo‘ljallanmagan binolari va inshootlari yoki ularning qismlari joylashgan yer uchastkasi;
- xususiylashtirilgan binolar va inshootlar egallagan yer uchastkasi;
- fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining qonunchilikka muvofiq mulk (egalik qilish) huquqi e’tirof etilgan binolari va inshootlari egallagan yer uchastkasi.

Qonunda o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalari va unda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish shartlari ham belgilangan.

Xususan, o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkasi boshqa shaxslarga ajratilmagan yoki elektron onlayn-auksionga qo‘yilmaganligi, yer uchastkasidan foydalanishda nizo yo‘qligi, yer va mol-mulk solig‘i bo‘yicha qarzdorlik mavjud emasligi, shirkat a’zosi bo‘lgani, investitsiya va boshqa majburiyatlar to‘liq bajarilgani kabi qator shartlar shular jumlasidan.

Bundan tashqari, qonun bilan yakka tartibdagi uy-joy qurilgan yer uchastkasiga bo‘lgan ijara huquqining o‘lchamlari aniq qilib belgilangan.

Agar o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkasi belgilangan hajmlardan ortiqcha bo‘lgan taqdirda, yer uchastkasiga bo‘lgan ijara huquqi e’tirof etilgan holda qolgan ortiqcha yer uchastkasi mazkur shaxsga dehqon xo‘jaligi yoki tomorqa xo‘jaligi yuritish uchun rasmiylashtirib berilishi nazarda tutilgan.

Ko‘rinib turibdiki, mazkur qonun ko‘plab yurtdoshlarimiz uchun ayni muddaodir. Shu ma’noda, uning yalpi majlisda senatorlar tomonidan ma’qullanishiga umid qilamiz.

**Shuhrat CHO‘LLIYEV,**
**Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi raisi o‘rinbosari.**

# JIDDIY TAHLILLARGA ASOSLANGAN TAKLIFLAR



Mazkur qonun loyihasi bilan energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha munosabatlarni tartibga solish ko‘zda tutilmoqda.

Shuningdek, qurilish va transport sohasida, bino hamda inshootlarda, issiqlik ta’minoti va kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalarida, qishloq xo‘jaligida, suv xo‘jaligida, xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlarida energiyani tejash, undan oqilona foydalanish hamda energiya samaradorligini oshirish tamoyillarini takomillashtirish belgilanyapti.

Muhokama davomida fraksiya a’zolari Javlonbek Ergashev, Nuriddin Sultonov va boshqalar ushbu qonun loyihasining ahamiyati va ayni chog‘da zaruratiga alohida to‘xtalib, undagi ayrim normalar bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Deputatlarning aytishicha, qonun loyihasining qabul qilinishi iste’moldagi energiya resurslarining behuda sarflanishini kamaytirishga xizmat qiladi.

### Xavfsizlik mustahkamlanadi, shaffoflik ta’minlanadi

**O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi** yig‘ilishida davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

Ma’lum qilinganidek, mazkur qonun loyihasi bilan “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunga tegishli qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish taklif etilmoqda. Jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha davlat xaridlari amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan holatlarni “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonun bilan aniq belgilash, davlat buyurtmachilari tomonidan amalga oshiriladigan eng yaxshi takliflarni tanlash va tender natijalari bo‘yicha g‘olib deb topilgan ishtirokchi taqdim etgan taklifda nazarda tutilgan shartlar asosida shartnomani davlat xaridlarining elektron tizimi tomonidan avtomatik tarzda shakllantirish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, davlat xaridlarida barqarorlik prinsiplarini joriy etish orqali davlat buyurtmachilariga qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish ko‘zda tutilgan.

Muhokama davomida fraksiya a’zosi Nodir Tilavoldiyev to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha davlat xaridlarining amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan holatlar soni nima sababdan ko‘paytirilayotgani bilan qiziqdi. Deputat Farhod Ashmatov esa qonun loyihasining 5-moddasi barqarorlik prinsipi bilan to‘ldirilayotgani, uni amaliyotda qo‘llashga doir masala yuzasidan aniqlashtiruvchi savol bilan yuzlandi.

Mutasaddilar ushbu savollar yuzasidan atroflicha javob berdi. Muhokamadan so‘ng qonun loyihasi fraksiya a’zolari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

“Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi muhokamasida ta’kidlanganidek, ushbu hujjat energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirishda qonunchilik talablarini, qonunda foydalanilgan asosiy atamalar va tushunchalarni, qonun hujjatlari talablariga rioya etishni, ularni buzganlik hamda energiya resurslaridan samarasiz foydalanganlik uchun javobgarlikni belgilashga qaratilgan.

Fraksiya a’zosi Jahongir Abdurasulov tabaqalashtirilgan to‘lov tizimiga o‘tish masalasiga to‘xtalib, bu tizim bir xonadonda yashovchi 3-4 oilalar uchun qiyinchilik keltirib chiqarayotgani, bunga esa ularning hammasi uchun bitta hisoblagich o‘rnatilgani sabab qilib keltirildi. Shu bois deputat bu kabi muammolarni hal etish uchun, avvalo, ularning kadastr hujjatlarini alohida qilish masalasini ilgari surdi.

Fraksiyaning yana bir a’zosi Umid Jabborov esa qonun loyihasining ahamiyatiga to‘xtalib, allaqachon energiya manbalarining zamonaviy yechimlariga o‘tish vaqti kelganligini, bozor munosabatlariga o‘tishda muqobil energiya turlarini joriy qilish lozimligini qayd etdi.

Yig‘ilishda deputatlar tomonidan ko‘tarilgan savollarga mas’ullar batafsil tushuntirish berib o‘tdi.

Savol-javoblardan so‘ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

### Xarid qilish tartib-taomillari takomillashtiriladi

**“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi** yig‘ilishida “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasi qizg‘in muhokamaga sabab bo‘ldi.

Ushbu qonun loyihasi ilg‘or xorijiy davlatlarning tajribalariga muvofiq, shuningdek, davlat xaridlarini amalga oshirishda keng raqobatni ta’minlash, tadbirkorlik subyektlarining davlat xaridlaridagi ishtiroki ko‘lamini kengaytirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Qonun loyihasida har bir xarid qilinadigan va yetkazib beriladigan oziq-ovqat mahsulotlarining texnik reglament talablariga muvofiq akkreditatsiyalangan sinov laboratoriyalarining bayonnomalarini talab etishni ta’minlash, davlat xaridlarida barqarorlik prinsiplarini joriy qilish orqali davlat buyurtmachilariga qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish nazarda tutilmoqda.



Shuningdek, davlat buyurtmachisi, zaruratga ko‘ra eng yaxshi takliflarni tanlash yoki tender natijalari bo‘yicha hadli kelishuv tuzish, yangi xarid turi hisoblangan kichik qiymatdagi xarid uchun soddalashtirilgan tartibni joriy etish belgilab qo‘yilmoqda.

Qonun loyihasining qabul qilinishi davlat xaridlari jarayonlarini raqamlashtirish natijasida sohada shaffoflik va raqobat muhitini kengaytirish, ilg‘or xorijiy davlatlarning tajribasi asosida davlat xaridlari bo‘yicha tartib-taomillarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Munozaralar davomida fraksiya a’zolari qonun loyihasi yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi. Loyihadagi ayrim normalar bo‘yicha muhim takliflar ilgari surildi. Xususan, deputat Oydin Abdullayeva davlat xaridlarini amalga oshirishda yetkazib beruvchilarga qanday talablar qo‘yilgani bilan qiziqdi. Fraksiya a’zosi Qodir Jo‘rayev esa tendersiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tkaziladigan davlat xaridlari masalasiga to‘xtalib, ularning e’lon qilinmasligi qaysi qonun hujjatlarida belgilanganini so‘radi.

Qonun tashabbuskorlari ko‘tarilgan har ikkala savol bo‘yicha batafsil tushuntirish berib, deputatlar tomonidan ilgari surilgan asosli takliflar ishchi guruh a’zolari ishtirokida ko‘rib chiqilgan holda loyiha matnida aks ettirilishini ma’lum qildi.

Quyi palata deputati Abdug‘ani Umirov ushbu qonun loyihasining mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida o‘z nuqtayi nazarini bildirar ekan, loyihaning qabul qilinishi davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, ushbu sohada yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish, davlat xaridlari jarayonlariga tadbirkorlik subyektlarini keng qamrab olishga xizmat qilishini qayd etdi.

Muhokamadan so‘ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

### Elektr energetika korxonalari majburiyatlari belgilanayotir

**O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi** yig‘ilishida “Elektr energetikasi to‘g‘risida”gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Mazkur qonun loyihasining maqsadi – O‘zbekiston Respublikasida ishonchli, xavfsiz, barqaror hamda arzon elektr ta’minoti tizimini yaratish uchun huquqiy asoslarni shakllantirish orqali sanoatni rivojlantirish, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va aholi farovonligini yuksaltirishdir. Shuningdek, iste’molchilarning narxlar, ishonchli elektr ta’minoti va xizmatlar ko‘rsatish sifati bo‘yicha manfaatlarini himoya qilish, samarali, shaffof va raqobatbardosh elektr energiyasi bozorining rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va xususiy investitsiyalarni rag‘batlantirishdan iboratdir.

Qonun loyihasi bilan elektr energetika korxonalarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilash hamda ularning o‘zaro va davlat hokimiyati organlari bilan munosabatlarining huquqiy asoslarini ta’minlash ko‘zda tutilmoqda.

Fraksiya a’zolari qonun loyihasi muhokamasida uning muhimligini, energiya ta’minoti tizimining xavfsizligini ta’minlash va bu tizimni takomillashtirishga xizmat qilishini e’tirof etgan holda bir qator savollarni o‘rtaga tashladi. Ularga soha mutaxassislari tomonidan atroflicha javoblar berildi.

Mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi elektr ta’minotining uzluksizligi, xizmat ko‘rsatish nuqtayi nazaridan iste’molchilarni, xususan, aholining zaif qatlamiga alohida e’tibor bergan holda ularning manfaatlari himoyasini kuchaytiradi. Qonun loyihasini yanada takomillashtirish yuzasidan taklif va mulohazalar bildirilib, hujjat qo‘llab-quvvatlandi.

Yig‘ilishda, shuningdek, “Issiqxona gazlari”ning chiqarilishini cheklash to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ham qizg‘in muhokamaga sabab bo‘ldi.

Muhokama davomida fraksiya a’zolari qonun loyihasining mazmun-mohiyatiga to‘xtalib, loyihani yanada takomillashtirish va pishiq-puxta holatga keltirish bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalari, taklif va tavsiyalarini bildirib o‘tishdi.

Shu bilan birga, qonun loyihasidagi ayrim normalar yuzasidan qonun tashabbuskorlariga qator savollar berildi. Ular ko‘tarilgan masalalar bo‘yicha batafsil tushuntirish berib, bildirilgan fikr-mulohazalar ishchi guruh a’zolari bilan birgalikda ko‘rib chiqilishini ma’lum qildi.

### “Issiqxona gazlari” chiqarilishini cheklash zarurati

**O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi** yig‘ilishida “Issiqxona gazlari”ning chiqarilishini cheklash to‘g‘risida”gi qonun loyihasi atroflicha ko‘rib chiqildi.

Ma’lum qilinganidek, bugungi kunda milliy qonunchiligimizda “issiqxona gazlari” chiqarilishini tartibga soluvchi qonun va normativ huquqiy baza yaratilmagani mamlakatimizda bunday gazlarning chiqarilishini kamaytirishda iqtisodiy, texnologik va ekologik yo‘nalishlar bo‘yicha xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish imkoniyatlarini cheklamoqda.

Qonun loyihasi bilan “issiqxona gazlari” chiqarilishini cheklashning asosiy prinsiplari, ushbu sohadagi davlat organlarining vakolatlari, qisqartirilgan “issiqxona gazlari”ga egalik munosabatlari, mazkur gazlar chiqarilishining davlat tomonidan hisobini yuritish tartib-qoidalari belgilanmoqda.

Bundan tashqari, “issiqxona gazlari”ning chiqarilishini cheklash choralarini monitoring, hisoboti va verifikatsiya tizimi asoslari hamda tartibi, ushbu sohadagi yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkorlarning huquq hamda majburiyatlari belgilab qo‘yilmoqda.

Fraksiya a’zosi Islom Xushvaqtovning ta’kidlashicha, O‘zbekiston uchun iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish birlamchi ahamiyat kasb etadi. Zero, qishloq xo‘jaligi, suv resurslari, iqtisodiyot hamda insonlar salomatligi va kelajagi iqlim o‘zgarishi zarbasi ostida turibdi. Iqlim bo‘yicha Parij kelishuvini ratifikatsiya qilgan O‘zbekistonda karbonat angidrid, metan, azot oksidi singari “issiqxona gazlari” ajratilishi hajmini kamaytirish uchun tezroq ushbu qonun loyihasi qabul qilinishi lozim.

Muhokamadan so‘ng qonun loyihasi qo‘llab-quvvatlandi.

**“Xalq so‘zi”.**

**Shvetsiya parlamenti (Riksdag)da O‘zbekiston va Qozog‘iston elchixonalari hamda Riksdagdagi Markaziy Osiyo parlamentlari bilan do‘stlik guruhi tomonidan biznes-seminar tashkil etildi.**

# UZOQ ISTIQBOLGA MO‘LJALLANGAN LOYIHALAR

1

Birgina oliy ta’lim tizimi misolida oladigan bo‘lsak, oliy ta’lim olish istagida bo‘lgan har bir shaxs uchun “Elektron hukumat” doirasida barcha vazirlik va tashkilotlar tizimlariga integratsiya qilingan universal platforma faoliyat ko‘rsatmoqda. Oliy ta’limni boshqarish va monitoringini yuritish jarayonlari raqamlashtirilib, istiqbolli modullar tatbiq etilmoqda. Har oyda 15 dan ziyod oliy ta’lim muassasalarida talabalar va professor-o‘qituvchilarga yaratilgan sharoitlarni o‘rganish, kamchiliklar aniqlansa, uni bartaraf etish chora-tadbirlarini amalga oshirish ishlari nazoratga olingan. Bu ham jamiyatimiz a’zolari orasida bilimli mutaxassislar safini oshirib borish, o‘z kasbini chuqur o‘rganish yo‘lidagi ezgu sa’y-harakatlardir.

Umuman, Yurtboshimiz boshchiligidagi barcha yangilanishlarda, islohotlarda xalqimiz hayotiga bevosita daxldor bo‘lgan sohalarda ko‘zda tutilayotgan vazifalar har jihatdan qamrab olinayotgani hammasi inson qadri uchun ekanligining ifodasidir.

*“... Tizim yaratdim, qonun yaratdim, dunyoni ochib berdim. Xalqim yaxshi yashasin, niyatlari amalga oshsin, bolalari baxtli bo‘lsin, nevaralari sog‘lom tug‘ilsin, maktabi ishlasin, yo‘llari ravon bo‘lsin, deb ishga keldim...”*. Yurtboshimizning qalb qo‘ridan chiqqan ushbu so‘zlar ertasini o‘ylagan, kelajagini shu yurtdan ayro tasavvur etolmaydigan har bir insonni o‘z mas’uliyatini yanada teran his etishga undaydi.

Haqiqatan ham, O‘zbekiston qisqa davr ichida yaratilgan mustahkam poydevorga tayangan holda jahonga yuz tutdi. Oliy ta’lim tizimi misolida oladigan bo‘lsak, nafaqat milliy imkoniyatlar kengaytirilyapti, balki barcha sohalar kabi dunyoga ochilmoqda. Xususiy universitetlarning rivojlanib borayotgani, ularning yildan-yilga oshib borayotgan nufuzi, ko‘lami yoshlarning oliy ta’lim bilan qamrovini oshirishdagi hissasida namoyon bo‘lmoqda. Sog‘lom raqobat muhitining shakllanib borayotgani, davlatimizning ishonchi tufayli xususiy oliygohlarning xorijiy universitetlar va xalqaro tashkilotlar bilan akademik, ilmiy sohalardagi hamkorlik aloqalari rivojlanib boryapti. O‘z navbatida, chet el delegatsiyalarining yurtimizga tashriflari, ta’lim forumlarining salmog‘i sezilarli oshdi.

Dunyo tajribasiga nazar soladigan bo‘lsak, nufuzli xalqaro reyting agentliklari tomonidan (QS – Quacquarelli Symonds, THE – Times Higher Education, ARWU – Academic Ranking of World Universities) har yili e’lon qilinadigan eng nufuzli universitetlarning “TOP – 10”taligida aynan xususiy universitetlarning 1 va 2-o‘rinlarni egallab kelayotganini ko‘rish mumkin. Bu borada ham davlatimiz rahbarining uzoqni ko‘zlab olib borayotgan siyosati, ta’limni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilayotgan Farmon va qarorlari nechog‘li ahamiyatli ekani va kelajakda mehnat bozori uchun raqobatbardosh mutaxassislarning nafaqat xorijda, balki o‘zimizda ham yetishib chiqishiga xizmat qilishini e’tirof etmoq joiz.

Birgina Xalqaro Nordik universiteti (XNU) faoliyati misolida oladigan bo‘lsak, oliygoh qisqa vaqt ichida xalqaro hamkorlik uchun platformaga aylanib ulgurdi. Joriy yilning o‘tgan davrida 20 dan ziyod xorijiy davlatlar delegatsiyalari kutib olindi va chet mamlakatlarga ta’lim tashriflari amalga oshirildi. Xususan, vakillarimizning AQShga ta’lim safari uyushtirilib, nufuzli Rovan universiteti bilan 6 ta muhim yo‘nalishda kelishuvga erishildi. O‘z navbatida, Rovan universiteti delegatsiyasi javob tashrifini amalga oshirdi va XNUning xalqaro tashabbuslarini faol qo‘llab-quvvatlamoqda.

XNU prorektori boshchiligida mamlakatimizning 20 ta yetakchi oliy ta’lim muassasasi vakillari uchun Finlyandiyaga ta’lim safari uyushtirilgani ham xalqaro hamkorlikning amaliy samarasidir. Yurtimizning chet tili o‘qituvchilari uchun ham mazkur xorijiy davlatda malaka oshirish kursi tashkil etishga muvaffaq bo‘lindi, fin tajribasi har tomonlama o‘rganildi.

XNUga Finlyandiya Tashqi ishlar vazirligining O‘rta Osiyo boshqarmasi vakillarining tashrifi ham samarali kechdi. Shuningdek, Xelsinki va Kareliya universitetlari delegatsiyalari bilan hamkorlikning keyingi istiqbollari belgilab olindi. Yaqinda, ya’ni 3 – 5-iyun kunlari XNUda Finlyandiya Tashqi ishlar vazirligi va Xelsinki universiteti huzuridagi Qonun ustuvorligi markazi bilan hamkorlikda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) kotibiyati xodimlari uchun seminar tashkillashtirildi. Seminarda Finlyandiya Adliya vitse-kansleri Mikko Pumalainen spikerligida fuqarolar murojaatlari bilan ishlash borasidagi fin tajribalari keng o‘rganildi.

O‘zbekiston – Estoniya tizimli hamkorligi ham tahsinga sazovor. Xususan, Estoniya ishbilarmon doiralari delegatsiyasining yurtimizga tashrifi uyushtirilib, universitetimizda keng formatda xalqaro biznes forumi o‘tkazildi.

XNU tomonidan “IDC” ta’lim markazi bilan hamkorlikda ilk bor yurtimizda 24 ta xorijiy mamlakat o‘quvchilari ishtirokida Toshkent xalqaro matematika olimpiadasi o‘tkazilganini ham e’tirof etish joiz. 17 – 20-may kunlari TasIMO olimpiadasining final bosqichi 300 nafar mahalliy va chet ellik 3 – 11-sinf o‘quvchilari ishtirokida yuqori saviyada o‘tkazildi.

Nufuzli bellashuv o‘quvchilarga nafaqat o‘z qobiliyatini namoyon etish, balki tajriba va bilim olish, dunyoning eng yaxshi matematiklari bilan tanishish imkoniyatini yaratdi. Ishtirokchilarning aqliy, ijodiy va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qildi. Toshkent xalqaro matematika olimpiadasi akademik mukammallik, dinamizm, ijodiy innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, yosh iqtidor egalarining yangi avlodini kashf qilish va rag‘batlantirish kabi xususiyatlari bilan ham ustuvorlik kasb etdi.

Aytish joizki, Xalqaro Nordik universitetiga tashrif buyurayotgan xorijlik pedagoglar, professor-olimlar bilan suhbatlarda *“Mehnatkash xalqingizga havasimiz keldi. Odamlardagi xushkayfiyat, ishonch, ayniqsa, yoshlarning ko‘zlarida ilmga chanqoqlik bizni lol qoldirmoqda. O‘zbekistonning o‘zi tanlayotgan yo‘ldan og‘ishmay qanday dadil borayotganining asosiy sababi ham hayot va mehnat zavqi bilan yashayotgan insonlari ekan, degan xulosa qilyapmiz...”*, degan fikrni bildirmoqda.

Ayta olamizki, buning sababi yurtdagi tinchlik va osoyishtalikda hamdir. Tinchlik bo‘lmasa, kim o‘z oldiga maqsad qo‘ya oladi?

Albatta, davlat va jamiyat boshqaruvi, biznesni taraqqiy ettirish, barcha soha rivojida salohiyatli yoshlar katta kuchdir. Yangi-yangi tashabbus va g‘oyalarni ilgari surish, zamonaviy ish yuritish uslublarini joriy qilishda ularning nuqtayi nazari, sa’y-harakatlari har qachongidan ham hozirgi shiddatli davrimizda muhimdir.

Xalqimiz ko‘zlagan ezgu maqsadlarga erishish – yangi O‘zbekistonni barpo etish, bu yo‘lda mavjud muammolarni samarali hal qilish o‘z sohasining ustasi bo‘lgan yetuk mutaxassislarni kamolga yetkazish bilan chambarchas bog‘liq. Bu esa yangi avlod kadrlarini tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalarida malakali, fidoyi va vatanparvar pedagoglarga talabni oshiradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning har bir chiqishi, da’vati barchamizga, ayniqsa, yoshlarimizga hayot bahosini teran anglashga ko‘maklashadi, ruhlantiradi. Maqolada qayd etilgan barcha jihatlar intiluvchan, serg‘ayrat, katta-katta maqsadlari bor yoshlarni yanada ruhlantirishi, yurt taraqqiyotiga hissa qo‘shishga tayyor butun boshli avlodni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

**Sherzod MUSTAFOQULOV,**
**Xalqaro Nordik universiteti rektori, professor.**

## Eksport

# FARG‘ONA GILOSI XORIJDA SOTILMOQDA

***Ayni kunlarda Farg‘ona viloyatidan yuborilgan gilos Xitoyning Chendu shahridagi savdo tarmoqlarida sotuvga chiqarildi.***

***O‘zaro kelishuvga ko‘ra, “Chendu – Ferghana” savdo uyi orqali Xitoyga jo‘natilgan 700 kg. gilos bojxona ko‘rigidan muvaffaqiyatli o‘tdi. Bu Chendu shahri mahalliy bozoriga doimiy ravishda eksportga jo‘natish va sotish maqsad qilingan yangi gilos navining birinchi jo‘natmasi hisoblanadi.***



Ta’kidlash kerakki, Farg‘ona viloyati delegatsiyasining o‘tgan yil sentabr oyida Xitoyga amaliy tashrifi davomida Farg‘ona viloyati va Sichuan muzofoti o‘rtasida hamkorlik bo‘yicha kelishuvga erishilgan edi. Buning samarasi sifatida joriy yilning 3-may kuni muzofot markazi – Chendu shahrida “Farg‘ona savdo uyi” tashkil etildi.

**“Xalq so‘zi”.**

# INSON KAPITALI – BEBAHO RESURS




***O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi muassisligida chop etilayotgan “Vatan” ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-ma’rifiy jurnalining ikkinchi soni nashrdan chiqdi.***

***Mamlakatimizda matbuot va so‘z erkinligining hayotiy ifodasi o‘laroq dunyo yuzini ko‘rayotgan ushbu salmoqli nashrda berilgan tahliliy ruhdagi maqolalar, suhbatlar, talqinlar, jozib she’rlar, turli soha mutaxassislari va ekspertlarining mulohazalari, xorijdagi vatandoshlarimizning sog‘inch tuyg‘ulariga to‘la dil so‘zlari har qanday o‘quvchini befarq qoldirmaydi. Yurtdoshlarimizni mushohada qilishga undaydi, vatanparvarlik, el-yurt taqdiriga daxldorlik tuyg‘ularini yanada yuksaltirishga hissa qo‘shadi.***

## Mutolaa

Masalan, turkiyalik siyosatchi, deputat Osman Mestenning shu yil may oyida Turkiya Buyuk millat majlisida so‘zlagan nutqidan olingan “O‘zbekiston buyuk Turkistonning qalbidir” sarlavhali maqolada ko‘ngilni nurga to‘ldiradigan, to‘lqinlantiradigan, faxr-iftixor hislarini junbishga keltiradigan satrlar bisyor.

“O‘zbekiston Buyuk Turkistonning qalbidir. Bizning ajdodlarimiz milodiy XI asrlarda Onado‘liga aynan ushbu o‘lkadan kelgan va u yerni Vatanga aylantirgan. Qariyb ming yildan beri farqli mintaqalarda yashasak-da, tilimiz, dinimiz, an’analarimiz o‘zgarmagan, Movarounnahrdagi qardoshlarimiz bilan aloqa hech qachon uzilmagan”, deb yozarkan, siyosatchi O‘zbekiston bugungi ma’rifat asrining asoslarini yaratgan, matematika, astronomiya, tibbiyot kabi aniq fanlar qatori, ijtimoiy va diniy ilmlarda katta iz qoldirgan, kashfiyotlar qilgan, tarixni yaratgan buyuk olimlarning yurti ekanini cheksiz g‘urur bilan e’tirof etadi.

Osman Mestenning fikricha, O‘zbekiston bugungi kunda faqat Markaziy Osiyoning emas, balki butun dunyoning porloq yulduziga aylangan. Prezident Shavkat Mirziyoyev asos solgan “Uchinchi Renessans” g‘oyasi sari jadal olg‘a intilmoqda.

Hozirgi kunda Moskva shahrida istiqomat qilayotgan yurtdoshimiz Anna Goncharovaning “Shavkat Mirziyoyev – o‘zbek xalqining fidoyi farzandi!” sarlavhali maqolasidagi Vatan tuyg‘usi, yangilanayotgan O‘zbekiston haqidagi fikr-mulohazalar ham e’tiborga sazovor.

Vatanning tanlanmasligini, ona kabi muqaddasligini, o‘zining O‘zbekiston farzandi ekanini cho‘ng samimiyat ila ta’kidlagan muallifning yaqinda mamlakatimizga, kindik qoni to‘kilgan Samarqandga qilgan sayohatidan olgan taassurotlari olamjahon, quvonch va iftixorga to‘la. “...yurtimizni taniy olmadim. Chindan-da, ko‘p narsalar o‘zgaribdi, O‘zbekistonimiz obod va farovon mamlakatga aylanibdi, go‘zallashibdi. Bu go‘zallik yurtdoshlarimiz qalbiga ham ko‘chganini his etdim. Ularning gap-so‘zlarida bugungi kunidan shukronalikni, ertangi kunga qat’iy ishonchni tuydim. Aql bovar qilmaydi...”, deb yozadi u.

Vatandoshimiz O‘zbekistondagi bu o‘zgarishlar, bunyodkorliklar, yuksalishning tashabbuskori Prezident Shavkat Mirziyoyev ekanini e’tirof etarkan, shunday deydi: “Vatanimning bugungi jamolini ko‘rib, odamlar tafakkuridagi yuksalishdan hayratlanib, O‘zbekistonning kelajagi porloq deya baralla ayta olaman. Chunki uning Shavkat Mirziyoyevdek uzoqni ko‘zlagan, pragmatik, fidoyi yetakchisi, xalqning asl farzandi bor!”

“Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf” jome masjidi imom-xatibi Ismoil Muhammad Sodiq bilan suhbatda xotirlangan shayx Muhammad Yusuf Muhammad Sodiqning hayot yo‘li, faoliyati har birimiz uchun ibratli. Hayotini ilm-ma’rifatga bag‘ishlagan atoqli shayx turli nohaq ayblovlar bilan nomi qoralanib, Vatanimizdan, xalqimizdan ayro yashashga majbur etilganida ham umrining oxirigacha hech bir odamga gina-kudurat qilmagani, biror og‘iz nojo‘ya so‘z aytmagani bugun chetdan turib, o‘z yurtiga har xil malomat toshlarini yog‘dirayotgan ayrim kimsalarning zarur xulosalar chiqarishi uchun arzigulikdir.

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor Akram Hoshimov “O‘zbekistonning 2030-yilgacha “yashil taraqqiyot”ga erishish strategiyasi qanday?” sarlavhali maqolasida butun dunyoda energiya va suv resurslari taqchilligi oshib borayotgan bugungi murakkab vaziyatda mamlakatimizda mavjud masalalarni samarali hal etishda innovatsion yechimlar, kreativ yondashuvlar, oqilona chora-tadbirlar qo‘llanilayotganini ochib bergan.

Muallif “Yashil iqtisodiyot” faqat energetika sohasini isloh qilishdan iborat emasligini, u toza ichimlik suvi muammolari, oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo‘jaligidagi innovatsiyalar, barqaror shaharlar, chiqindilarni oqilona boshqarish, o‘rmon hududlarini kengaytirish, cho‘llanishni qisqartirish kabi ko‘p qirrali va keng tarmoqli chora-tadbirlarni o‘z ichiga olishini tahlil qiladi.

Jurnal sahifalaridan joy olgan har bir material Vatanimizning shonli o‘tmishidan, bugungi yangilanishlarning surati va siyratidan so‘zlaydi. O‘quvchiga bilim beradi, uning tuyg‘ularini, ma’naviy olamini boyitadi. Buning ahamiyatini esa bir so‘z bilan ifodalash mushkul. Zotan, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, bugun biz barpo etayotgan uchinchi Renessans poydevori ham, hech shubhasiz, inson kapitali, ilm-fan, innovatsiya va yangi kashfiyotlar asosida bunyod qilinadi.

**“Xalq so‘zi”.**

## YANGILIKLAR *xabarlar*

# TAFSILOTLAR

## Havo ifloslanishiga qarshi birgalikda kurashiladi

*Toshkentda O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tomonidan Jahon banki hamda BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) bilan hamkorlikda “Markaziy Osiyoda toza havo bilan kelajak qurish” shiori ostida ilk siyosiy mintaqaviy muloqot bo‘lib o‘tdi.*



Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekistonning davlat idoralari vakillarini jamlagan ushbu tadbirda Osiyo hamda Yevropadan havo sifatini boshqarish sohasidagi yetakchi mutaxassislar ham ishtirok etdi.

Tadbir davomida mintaqa davlatlari o‘rtasida muvofiqlashtirilgan harakatlarni rag‘batlantirish va havo ifloslanishining oldini olish sohasida o‘zaro bilim va tajriba almashildi.

## Ikkita mikroGES foydalanishga topshirildi

*Farg‘ona viloyatining Shohimardon qishlog‘ida 2,2 MVt quvvatga ega “Shohimardon” mikrogidroelektr stansiyasi ishga tushirildi.*




“O‘zbekgidroenergo” AJ va Yevropa Ittifoqi hamkorligida bunyod etilgan ushbu mikroGES Shohimardon qishlog‘i aholisini ekologik toza elektr energiyasi bilan to‘liq ta’minlash va qo‘shimcha ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish imkonini beradi.

Shuningdek, 430 kVt quvvatga ega “Vodil” mikroGESning foydalanishga topshirilishi natijasida “Yuqori Vodil” MFYda yashovchi aholi ekologik toza elektr energiyasi bilan to‘liq ta’minlanadi.

## Olis hududdagi zamonaviy bog‘cha



*Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi chekka hududlardan biri hisoblangan “Zarafshon” mahalla fuqarolar yig‘inida davlat-xususiy sheriklik asosida yana bir nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyat boshladi.*

“Boychechak” nomli 100 o‘ringa mo‘ljallangan mazkur muassasada bolajonlarning ta’lim-tarbiya olishi uchun barcha sharoit yaratilgan.

Kitob tumani hokimligi va prokuratura xodimlari, mahalla faollari, nuroniylar hamda ota-onalar ishtirok etgan tadbirda tarbiyalanuvchilar uchun yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishildi.

## Yoshlar sanoat texnoparki

*Yil avvalida davlatimiz rahbari raisligida bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishlaridan birida Yangiyer shahrida un-qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha vazifalar belgilangan edi.*

Shundan kelib chiqib, Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filialida oziq-ovqat klasteri ko‘rinishidagi Yoshlar sanoat texnoparki ochildi.

Mazkur loyiha doirasida jami 1 mln. AQSh dollari miqdorida investitsiya jalb etilib, pechenye, un-qandolat hamda boshqa turdagi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

**“Xalq so‘zi”.**

**Shu yilning 24-iyun kuni Toshkentda O‘zbekiston – Yaponiya qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish forumi hamda yapon pazandachilik ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tadi.**



# TOG'LAR CHORLAYDI

## YOHUD SO'LIM HUDUDLARNING TURISTIK SALOHIYATIDAN QANDAY FOYDALANILMOQDA?

*Jannatmonand yurtimizning dunyoga mashhur qadimiy shaharlari, tabiati maftunkor maskanlari ko'p. Samarqand, Buxoro, Xivaning ko'hna obidalari, Zominu Baxmalning so'lim go'shalari, purviqor tog'lari har qanday insonda hayrat va havas uyg'otadi. Shu bois bu hududlar mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda ham alohida mavqega ega.*

*Zomin tumanining sayyohlik salohiyatini oshirishda uning osmono'par qorli tog'lari va yam-yashil archazorlarining o'rni katta. Tog'lar orasida joylashgan tabiiy yassi tekislik xalq orasida "Suffa" nomi bilan mashhur. Bu maskan o'zining geografik o'rni va tabiiy iqlimi bilan turizmni rivojlantirishga juda qulay. U dengiz sathidan 2400 metr balandlikda joylashgan. Bu yerda yozning jazirama kunlarida ham harorat o'rtacha 32 daraja atrofida bo'ladi. Shuning uchun ham bu yerni turistlar maskani sifatida rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.*

### Sayyohlik

Xususan, 2021-yil 6-apreldagi "Zomin" turistik-rekreatsion zonasini va xalqaro umummavsumiy kurortni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni bilan "Zomin" turistik-rekreatsion zonasi ochildi.

Turistik zona hududida qurilgan "Suffa platosi. 2 400" xalqaro umummavsumiy kurorti va "O'riklisoy" turizm majmuasi bugungi kunda mamlakatimizning turli hududlaridan kelgan mehmonlar, xorijlik sayyohlar bilan gavjum.

– Jonajon Vatanimiz tabiati turfa go'zalliklarga boy. Xorijliklar qum barxanlari qoplagan sahrolarimizni ham, so'lim bog'u xiyobonlarimizni ham, sharqiroq soylarga, maftunkor sharsharalarga, archazorlarga boy tog'u daralarimizni ham ko'rgisi keladi, – deydi "Zomin" turistik-rekreatsion zonasi direktorining o'rinbosari Abdug'ani Avazov. – Bugungi kunda ana shu imkoniyatdan foydalanib, yurtimizga sayyohlarni keng jalb qilishga hamma shart-sharoit yaratilmoqda. Bizning turistik zona tashkil etilishidan ham tog'li hududlarning turizm salohiyatidan samarali foydalanish maqsad qilingan. Shu bois Zominda xalqaro umummavsumiy kurortlar, mehmonxona majmualari, madaniy-sog'lomlashtirish, savdo-ko'ngilochar va boshqa turizm infratuzilmasi obyektlari barpo etilmoqda. Ularning faoliyati yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi bandligini ta'minlashda muhim o'rin tutyapti. Hozirda uzunligi 2200 metr bo'lgan zamonaviy dor yo'lini qurib ishga tushirdik. Uning maksimal o'tkazish qobiliyati soatiga 1200 nafar mijozga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan. Bu obyektning ishga tushishi bilan turistlar oqimi keskin oshdi. Qo'shni davlatlardan ham sayyohlar tashrif buyurmoqda.

– Zamonaviy dor yo'li bizga juda manzur bo'ldi, – deydi Xorazm viloyatidan kelgan sayyoh Boynazar Xudoynazarov. – Kabinalar zamonaviy dizaynda 8 kishiga mo'ljallangan bo'lib, unda ulkan tog' cho'qqilariga sayr qilish juda ham maroqli. Biz sayohatimizni bir kunga mo'ljallagan edik, ammo bu yerning musaffo havosiyu zamonaviy madaniy hordiq chiqarish maskanlarining ma'qul kelgani sababli oila a'zolarimiz bilan yana bir necha kunga qoladigan bo'ldik. Taassurotimizni uyga qaytganimizda qarindoshlarga, qo'ni-qo'shnilarga aytib, ularni ham bunday mo'jizakor maskanlarga sayohat qilishga chorlaymiz.

Turistik-rekreatsion zonada sayyohlarga xizmat ko'rsatish infratuzilmasi yaratilgan. O'tgan yilda "Wyndham Garden", "Hampton by Hilton", "Ramada Encore by Wyndham" kabi zamonaviy brendlarning 3 ta uch yulduzli mehmonxonasi barpo etildi. Bu yerda xalq hunarmandchiligi mahsuloti bo'lgan turli sopol idishlar, o'yinchoqlar sotish yo'lga qo'yilgan. Sayyohlarning ko'ngilli dam olishi uchun sog'lomlashtirish markazi faoliyat ko'rsatmoqda.

– Jahon turizmi jadal rivojlanayotgan hozirgi zamonda sohaga innovatsion usullarni tatbiq qilish davr taqozosiga aylanmoqda, – suhbatni davom ettirdi Abdug'ani Avazov. – Bugun turistlarni hayratlantirish oson emas, lekin uddalasa bo'ladigan ish. Yaqinda qurib bitkazilgan osma ko'prik ana shunday inshootlardan biri, desak, ayni haqiqat. Uzunligi 300 metr va balandligi 150 metr bo'lgan ushbu osma ko'prik sayyohlar hayrati va quvonchini oshirmoqda. Dam olish kunlari ushbu maskanga tashrif buyuruvchilar 5 ming nafardan oshayotgan bo'lsa, haftaning qolgan kunlari maskanimizga 2,5-3 ming sayyoh kelmoqda.



***Bugun turistlarni hayratlantirish oson emas, lekin uddalasa bo'ladigan ish. Yaqinda qurib bitkazilgan osma ko'prik ana shunday inshootlardan biri, desak, ayni haqiqat. Uzunligi 300 metr va balandligi 150 metr bo'lgan ushbu osma ko'prik sayyohlar hayrati va quvonchini oshirmoqda. Dam olish kunlari ushbu maskanga tashrif buyuruvchilar 5 ming nafardan oshayotgan bo'lsa, haftaning qolgan kunlari maskanimizga 2,5-3 ming sayyoh kelmoqda.***

Ekstremal sport qiziquvchilari uchun "Bungee Jumping" attraksioni foydalanishga topshirildi. Shuningdek, Suffada sportning tog' chang'isi, biatlon, arqon sporti, tramplindan sakrash turlarini tashkil etish mumkin. Sayyohlik bu faqat ko'ngilochar tomoshalardan iborat emas. Aksincha, sayyohlar yurtimiz tarixi, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, milliy taomlarimiz haqida yetarli tasavvurga ega bo'lishi kerak. Dam olish zonasida o'tov uylar ham tashkil etmoqchimiz. Dor yo'li va dor ko'prik boshqa yo'nalishlar bo'yicha ham bunyod qilinadi.

– Men dunyoning ko'plab mamlakatlarida bo'lganman, – deydi rossiyalik sayyoh Aleksandr Gusev. – Yer yuzida tabiiy go'zalligi bilan mashhur davlatlar ko'p. Lekin ular orasida inson aqli-zakovati bilan tashkil etilgan mo'jizakor obyektlarning o'z o'rni bor. Nazarimda, Suffada qurilgan dor yo'li ana shunday majmualardan biri. Osmono'par tog'lar bag'rida shamolda tebranib turgan dor yo'lidan yurishning gashti o'zgacha. Pastda oyog'ingiz tagida qoyalar, tepada esa qorli tog'larni kuzatish odamga o'zgacha kayfiyat va kuch bag'ishlaydi. Bu – yurtingizda turizmni rivojlantirishga oqilona yondashilayotganining ifodasi.

Suffada sayyohlar uchun qulaylik yaratish maqsadida 29 ta shale tipidagi uylar qurilmoqda. Mazkur binolarda oilaviy dam olish uchun qulaylik hozirlangan. Shuningdek, ming o'rinli amfiteatr qurilishi nihoyalanmoqda. U bitgach haftasiga 2-marta taniqli san'atkorlar, 2-marta folklor va xalq ansambli qatnashchilari ishtirokida konsertlar uyushtirilishi rejalashtirilgan. Xiva shahridagi kabi sayyohlarning o'zbek xalq kuy va qo'shiqlariga jo'r bo'lib raqsga tushishi, miriqib dam olishiga imkon yaratiladi. Suffada fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish binosi bunyod etilib, foydalanishga topshirildi.

Yangi oila qurayotgan kelin-kuyovlar ziyoratgohlarga, ko'ngilochar maskanlarga sayr qilishni istashadi. Endilikda ular boshqa tomonlarga borib yurmaydi, nikohlarini shu yerda rasmiylashtirishi mumkin. Qolaversa, chet ellik sayyohlar nikohni rasmiylashtirish tantanalarida ishtirok etib, milliy urf-odatlarimizni o'z ko'zlari bilan kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi.



– Turizm dunyo bo'ylab ulkan sanoatga aylanib bormoqda, – deydi Zomin tumani hokimi o'rinbosari, investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi boshlig'i Dilshod Mamadazimov. – Sohani rivojlantirish uchun infratuzilmalar faoliyatini yaxshilash darkor. Hozirda Suffaga sayyohlar, asosan, Zomin tumani markazidan o'tadigan asfalt yo'l orqali kelishmoqda. Bu yerdan Baxmal tumaniga olib boradigan yo'l ham mavjud. Kelgusida uni ta'mirlab, ishga tushirish rejaga kiritilgan. Ana shunda turistik zonaga yurtimizning g'arbiy hududlaridan avtomobillar Baxmal orqali kirib kelishi mumkin. Bu Zomin tumani markazi tomonidan keladigan yo'ldagi tirbandliklarning oldini oladi. Transport vositalari harakat xavfsizligini ta'minlaydi.

Turizm – mamlakat xazinasiga sarmoya olib keladigan xizmat turi. Ma'lumotlarga murojaat qilsak, o'tgan yili Jizzax viloyatiga 144,2 ming xorijiy va 1 million 176 ming mahalliy sayyohlar tashrifi qayd etilgan. Sohaning rivojlanishi esa mamlakatimiz nufuzini yanada oshirishga, dunyoga tanitishga xizmat qilishi, shubhasiz.

**Abdusattor SODIQOV
("Xalq so'zi").**

**DO'STLIK RISHTALARI**

# SIAN – SAMARQAND – SIAN YO'NALISHIDA AVIAQATNOV OCHILDI

*Xitoyning Shensi muzofoti Sian shahrida "Zhejiang Loong Airlines" aviakompaniyasining Sian – Samarqand – Sian yo'nalishi bo'yicha ilk parvoziga start berish marosimi bo'lib o'tdi.*

Tadbirda Shensi muzofoti gubernatori o'rinbosari Van Xaypen, aviakompaniya prezidenti Gao Inchjan, Sian xalqaro aeroporti bosh direktori Tan Shaofey, Xitoy shimoli-g'arbiy mintaqasi fuqaro aviatsiyasi ma'muriyati rahbari o'rinbosari Niu Szyunmin va O'zbekiston elchixonasi vakillari Sian – Samarqand – Sian yo'nalishida amalga oshiriladigan mazkur parvozning ahamiyatiga atroflicha to'xtalib o'tdilar.

So'nggi yillarda O'zbekistonda turli sohalarda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan qulay sharoitlar hamda mamlakatimizning turizm salohiyati haqida batafsil so'zlab berildi.

Tadbir chog'ida Van Xaypen Xitoy va O'zbekistonning eng muhim madaniy markazlari o'rtasida aviaqatnovlarning yo'lga qo'yilishi, mintaqaviy do'stona munosabatlar mustahkamlanishiga, xususan, mazkur hududlarning sayyohlik salohiyatini kengaytirish, sayyohlar oqimini ko'paytirish hamda savdo-iqtisodiy aloqalarini yanada rivojlantirishga yordam berishini ta'kidladi.

Shuningdek, O'zbekiston va Xitoy o'rtasida aviaqatnovlar sonini ko'paytirish va parvozlar geografiyasini kengaytirish nafaqat "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi maqsadlari bilan hamohang, balki ikki mamlakat davlat rahbarlari tomonidan 2023-yil 18-may kuni Sian shahrida imzolangan Qo'shma bayonot, shuningdek, 2023 – 2027-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasida yangi davrda har tomonlama strategik sheriklikni rivojlantirish dasturi hamda Prezident Shavkat Mirziyoyevning shu yil 23 – 25-yanvar kunlari Xitoyga amalga oshirgan davlat tashrifi chog'ida tomonlar o'rtasida erishilgan kelishuvlarda ham o'z aksini topganligi bayon etildi.

Mazkur kelishuvlar ijrosi doirasida olib borilgan sa'y-harakatlar natijasida ayni vaqtga kelib, ikki mamlakat o'rtasidagi parvozlar soni haftasiga 20 taga yetkazilganligi bildirildi.

Ushbu parvozlar "Uzbekistan Airways" AJ, "Zhejiang Loong Airlines", "China Southern Airlines" aviakompaniyalari tomonidan yo'lga qo'yilgan bo'lib, amalga oshirilayotgan parvozlar Pekin – Toshkent o'rtasida 7 ta, Urumchi – Toshkent yo'nalishida 5 ta, Sian – Toshkent oralig'ida 3 ta, Chendu – Toshkent o'rtasida 3 ta va Sian – Samarqand yo'nalishida esa 2 ta ekanligi ma'lum qilindi.

Tadbir so'ngida Xitoy tomoni bilan mazkur yo'nalishdagi tizimli ishlarni izchil davom ettirishga, xususan, sohaga oid shartnomaviy-huquqiy bazani yanada takomillashtirgan holda yaqin kelajakda ikki mamlakat o'rtasidagi parvozlar sonini haftasiga 100 taga yetkazishga kelishib olindi.



# "AVLODLAR MULOQOTI" IKKI QARDOSH MAMLAKAT VAKILLARINI BIRLASHTIRDI

*O'sh shahrida O'zbekiston va Qirg'iziston vakillari ishtirokida "Avlodlar muloqoti" xalqaro forumi bo'lib o'tdi.*

*Tadbirda Qirg'iziston Madaniyat, axborot, sport va yoshlar siyosati vazirligi, Andijon viloyati yoshlar tashkilotlari, ikki davlat mahalliy boshqaruv organlari vakillari hamda oliy o'quv yurtlari talabalari qatnashdi.*

Muloqot doirasida yalpi majlis, sessiyalar, turli munozaralar va madaniy tadbirlar uyushtirildi.

Ularda ishtirokchilar yoshlar siyosati, tadbirkorlik, axborot texnologiyalari va biznesning turli yo'nalishlari bo'yicha hamkorlik masalalari to'g'risida fikr almashdilar.

O'zbekiston vakillari safar davomida O'sh shahrining diqqatga sazovor maskanlari bilan ham tanishdi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, mazkur forum O'zbekiston va Qirg'izistonning turli avlodlari o'rtasida do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlash va hamkorlik munosabatlarini kengaytirish maqsadida O'zbekiston Prezidentining



2023-yil yanvar oyida Qirg'izistonga amalga oshirgan davlat tashrifi doirasida erishilgan kelishuvlar asosida tashkil etildi.

**"Dunyo" AA.**

**Kechadan 1-sinfga qabul uchun onlayn ariza topshirish boshlandi. Endilikda ota-onalar farzandlarini 2024/2025 o'quv yilida 1-sinfga joylashtirish uchun "my.maktab.uz" elektron platformasidan foydalanishi mumkin.**

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-542. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir T. Eshboyev.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'zA yakuni — 22.49 Topshirildi — 02.25 1 2 3 4 5 6